

INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MAVZUSI BO'YICHA VIDEOMA'RUZALARNI TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*G'afurova Nodira,
Sobirova Shaxnoza*

Urganch shahar 1-son kasb-hunar maktabi

Annotatsiya. Tadqiqot maqsadi universitetlarda va kasb-hunar maktablarida sohaviy yo'nalishida tahsil oladigan talabalarda o'qish uchun internertenda ishlash texnologiyalari mavzusi bo'yicha videoma'ruza tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasi va pedagogik texnologiyalarini o'rganish edi. Buning uchun turli xil videoma'ruzalar yaratishga imkon beradigan dasturlarning imkoniyatlarini o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Maqolada keng tarqalgan Camtasia studio dasturidan foydalanib videoma'ruza tayyorlash usul va vositalari, muhokama qilindi. Videoma'ruzadan foydalanish metodikasi tahlil qilinib, xulosalar chiqarishimizga imkon berdi.

Kalit so'slar: Camtasia studio, Adobe Captivate, RoboDemo, SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, PowerPoint, Webinaria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB FlashBack Express, Camtasia Studio, Jing, multimediya vositalari.

Аннотация. Целью исследования было изучение методов и педагогических технологий подготовки и использования видеолекций по политике кибербезопасности и ее управлению для студентов, обучающихся в области информационной безопасности в вузах. Для этого были изучены и проанализированы возможности программ, позволяющих создавать разнообразные видеолекции. В статье рассматриваются методы и инструменты для создания видеолекции с помощью популярной программы-студии Camtasia. Методика использования видеодоклада была проанализирована и позволила сделать выводы.

Ключевые слова: Camtasia studio, Adobe Captivate, RoboDemo, SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, PowerPoint, Webinaria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB FlashBack Express, Camtasia Studio, Jing, мультимедийные инструменты.

Abstract. The aim of the research was to study the methods and pedagogical technologies of preparing and using video lectures on cybersecurity policy and its management for students studying in the field of information security at universities. To do this, the possibilities of programs that allow you to create a variety of video lectures were studied and analyzed. The article discusses the methods and tools for making a video lecture using the popular Camtasia studio program. The methodology of using the video report was analyzed and allowed us to draw conclusions.

Keywords: Camtasia studio, Adobe Captivate, RoboDemo, SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, PowerPoint, Webinaria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB FlashBack Express, Camtasia Studio, Jing, multimedia tools.

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor yildan – yilga ortmoqda. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash, multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb e'tib bormoqda. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarining jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi" deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Ta'limda multimedia materiallarini qo'llash o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirishda, ularni fanni chuqur o'rganishida katta ro'l o'ynaydi. Kompyuter savodxonligini oshirish, kompyuterdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Multimedia materiallarining potensial afzalliklari haqida Meer (Maer) ham aytib o'tgan. Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko'ra multimedaning ma'lum ustunligi mavjud.¹ Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub'ekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi.

Videoma'ruzalar-o'quv materialini undagi topshiriqlar yoki mashqlarni o'rgatib, tushuntirib berish jarayonini video ko'rinishida yozib olishdan iboratdir². Videoma'ruzalardan foydalanuvchilar, videoma'ruza o'rgatilgan mavzuni mustaqil o'rganib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Videoma'ruzalardan foydalanish hozirgi davrda multimedia texnologiyalaridan biri sanaladi.

¹ Авлиёкулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари – Тошкент, 2001.

² Ғаниев С. К., Каримов М. М., Ташев К. А. Аxborot хавфсизлиги. Аxborot-коммуникация тизимлар хавфсизлиги. Олий ўқув юрт талабалари учун мўлжалланган. "Алоқачи", 2008.

Videoma'ruzalar yaratish uchun bir necha dasturlar mavjud bo'lib, ular orasidan "Camtasia Studio" va "Adobe Captivate" dasturlarini ko'rib tahlil qilindi. Camtasia Studio va Adobe Captivate dasturini tahlil qiladigan bo'lsak, Camtasia Studio dasturining yana bir afzalligi shundaki, u o'zining shaxsiy TechSmit Screen Capture Codec kodekiga ega bo'lib, tasvirni kodlashtirishda yaxshi natijalarni beradi. Uning algoritmi tizimga bo'lgan ortiqcha yuklanishlarni minimallashtiradi, shuning uchun ushbu dasturdan unumdorligi past bo'lgan kompyuterlarda ham foydalanish mumkin. Camtasia Studio dasturi boshqalardan video tasvirni sifatli ushlab olishi bilan farqlanadi³.

Captivate yordamida dasturlarning interfaol namoyishlari, simulyatsiyalar, yordamchi ma'lumotlar, skrinkastlar, o'yinlar va darslar yaratish va tahrirlash mumkin. Captivateda yaratilgan skrinkastlar ekrandan qilingan yozuvlarga nisbatan ancha kam joy egallaydi. Adobe Captivate dasturining kamchiligi, dastur yordamida ishlab chiqilayotgan o'quv kurslari Flash texnologiyasiga asoslangan. Adobe Captivatening yuqorida ko'rib chiqilgan imkoniyatlariga qaramay, bu texnologiya yopiq, maxsus va planshet qurilmalar va smartfonlar qo'llab-quvvatlanmasligini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, bu texnologiyalar hisoblash resurslariga juda talabchan, bu esa hozirda keng tarqalgan shaxsiy kompyuterlarning rusumlarida— noutbuklarda (ko'p quvvat sarflaydi) ishlatish uchun noqulaylik tug'diradi.

Camtasia Studio – ajoyib utilita dasturlardan biri bo'lib. uning yordamida ekrandagi tasvir va harakatlarni yozib olish va uni turli xildagi kengaytmalarda kompyuter xotirasida saqlash mumkin. Bundan tashqari yozib olingan videoni tahrirlash va maxsus pleerlar yordamida namoyish etishni ta'minlash mumkin. Dastur ekranning istalgan qismidagi harakatlarni va tovushni odatda .AVI standartida saqlashi mumkin. Camtasia Studio dasturi ekranda bo'layotgan jarayonlarni saqlab qo'yish uchun ishlatiladi. Dastur to'rtta yordamchi qismlardan iborat: Camtasia MenuMaker, Camtasia Player, Camtasia Theater va Camtasia Recorder. Dasturning asosiy qismi, shubhasiz, Camtasia Recorder hisoblanadi. Barcha ma'ruzalar aynan shu dastur yordamida yaratildi. Videoma'ruzani yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Videoma'ruzani yaratish uchun avvalo videoma'ruza yaratuvchi dastur tanlandi.

2-bosqich. Dastur foydalanuvchi kompyuteriga o'rnatiladi.

3-bosqich. Videoma'ruza tayyorlash uchun zarur ma'lumotlar yig'ildi.

4-bosqich. Ma'lumotlar tartib bilan ketma-ketlikda joylab loyihlashtirildi.

5-bosqich. Yaratilgan proekt video ko'rinishida saqlanadi.

Yaratilgan videoma'ruza "AutoPlay Media Studio" dasturiga joylanadi. Autoplay dasturidan foydalanish uchun talabalarga yo'riqnoma ishlab chiqiladi va tanishtiriladi. Yaratilgan videoma'ruzadan ma'ruza mashg'ulotlarni o'tkazishda bir nechta metodlardan foydalaniladi.

³ UDK: 004 S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: o'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2020, 303 bet.


“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Xulosa qilib yana shuni aytish mumkinki, multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'p tarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Videoma'ruzalar yaratish ham multimedia texnologiyalari turiga mansub bo'lib, foydalanuvchiga videoma'ruza mavzusini mustaqil o'rganish imkonini beradi.

References

UDK: 004 S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: o'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2020, 303 bet.

Ганиев С. К., Каримов М. М., Ташев К. А. Ахборот хавфсизлиги. Ахборот-коммуникация тизимлар хавфсизлиги. Олий ўқув юрт талабалари учун мўлжалланган. "Алоқачи", 2008.

Авлиёкулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари – Тошкент, 2001.